KOREYS TILIDA MUROJAAT SHAKLLARINING YOSH VA IJTIMOIY MAVQEGA BOG‘LIQ QO‘LLANILISHI

Ahmadjonova Jasmina Azizjon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq tillari va adabiyoti instituti Koreyashunoslik oliy maktabi 2-kurs talabasi
Tel.: 99 259 80 07
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23910936

Annotatsiya. Mazkur tezisda koreys tilidagi murojaat shakllarining lingvistik va ijtimoiy xususiyatlari, ularning yosh hamda ijtimoiy mavqega bog‘liq holda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Murojaat birliklarini tanlashda suhbatdoshlarning yoshi, kasbiy faoliyati, jamiyatdagi mavqei va o‘zaro munosabatlarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklarning hurmat kategoriyasini ifodalashdagi vazifasi misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, murojaat shakllari, 호칭어, yosh omili, ijtimoiy mavqe, hurmat kategoriyasi, sotsiolingvistika, pragmatika.

Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy munosabatlari, milliy qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Har bir tilda suhbatdoshga murojaat qilishning o‘ziga xos shakllari mavjud bo‘lib, ular muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, koreys tilida murojaat shakllari murakkab ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarga ega.

Koreys tilshunosligida murojaat shakllari 호칭어 (hochingŏ) atamasi bilan ifodalanadi. Ushbu birliklar suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei, kasbi, jinsi hamda so‘zlovchi bilan bo‘lgan munosabatiga qarab tanlanadi. Koreys jamiyatida kattalarga hurmat ko‘rsatish va ijtimoiy munosabatlarni til orqali ifodalash muhim madaniy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Koreys tilida murojaat shakllarining tanlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri yosh hisoblanadi. Yosh jihatidan katta va kichik insonlar o‘rtasidagi munosabatlar maxsus murojaat birliklari orqali ifodalanadi. Bugungi kunga kelib qizlar o‘zidan katta yigitlarni, unashtirilgan yigitlarini, hamda o‘zidan yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydigan bolalarni oppa deb chaqirishadi. Agar shaxsga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilinsa 오빠 (oppa), agar III shaxs sifatida qo‘llanilsa avval ism, so‘ng 오빠 (Minsu oppa) (Minsu oppa) tarzida ifodalaniladi. Masalan:

오빠, 주말에 시간이 있으면 같이 극장에 갈까요?

(Aka), dam olish kunlari vaqtingiz bo‘lsa, birga teatrga boramizmi?

Mazkur misolda qiz o‘z akasiga nisbatan murojaat qilgan bo‘lsa, «aka» deb tarjima qilish mumkin. Agar o‘zidan katta bo‘lgan yigitga qarata qilingan murojaat bo‘lsa, u holda tarjima qilinmasdan shundayligicha qoldirish mumkin.

Pog‘onali munosabatlarda samimiyatni ifodalaydigan va “aka” ma’nosini beradigan murojaat birliklaridan yana biri erkaklarning nutqiga xos bo‘lgan 형 (hyeong) «aka» murojaatidir. 형 (hyeong) “aka” undalmasi akaga, qaynog‘aga, o‘zidan kattalarga, yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydiganlarga nisbatan ishlatiladi[1]. Erkaklarning nutqida 형 (hyeong) murojaati jinoiy guruh yetakchisiga nisbatan ham qo‘llaniladi.

[1] Usmonova Sh. Koreys va turkiy tillarda undalmalar // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent: “Universitet”, 2004. – B. 76.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

형, 자전거가 고장 났는데 고칠 수 있어요?

(Aka), velosiped buzilib qoldi, tuzata olasizmi?

Murojaat shakllariga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil — ijtimoiy mavqedir. Koreys tilida insonning kasbi, lavozimi va jamiyatdagi o‘rniga qarab murojaat qilish keng tarqalgan. Masalan, 선생님 (seonsaengnim) — ustoz yoki o‘qituvchi, 교수님 (gyosunim) — professor, 사장님 (sajangnim) — kompaniya rahbari, 부장님 (bujangnim) — bo‘lim boshlig‘i kabi birliklar shaxsning kasbiy yoki ijtimoiy mavqeini ifodalash bilan birga, unga nisbatan hurmatni ham bildiradi.

1-jadval. Koreys tilida yosh va yaqinlikka bog‘liq murojaat shakllari

Koreyscha	O‘qilishi	O‘zbekcha ma’nosi	Qo‘llanishi
형	hyeong	Aka	Erkak kishining o‘zidan katta erkakka murojaati
오빠	oppa	Aka	Ayol kishining o‘zidan katta erkakka murojaati
누나	nuna	Opa	Erkak kishining o‘zidan katta ayolga murojaati
언니	eonni	Opa	Ayol kishining o‘zidan katta ayolga murojaati
동생	dongsaeng	Uka/singil	O‘zidan kichik kishini atash

Murojaat shakllariga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil — ijtimoiy mavqedir. Koreys tilida insonning kasbi, lavozimi va jamiyatdagi o‘rniga qarab murojaat qilish keng tarqalgan. Masalan, 선생님 (seonsaengnim) — ustoz yoki o‘qituvchi, 교수님 (gyosunim) — professor, 사장님 (sajangnim) — kompaniya rahbari, 부장님 (bujangnim) — bo‘lim boshlig‘i kabi birliklar shaxsning kasbiy yoki ijtimoiy mavqeini ifodalash bilan birga, unga nisbatan hurmatni ham bildiradi.

2-jadval. Kasb va ijtimoiy mavqega bog‘liq murojaat shakllari[2]

Koreyscha	**O‘qilishi**	**O‘zbekcha ma’nosi**	**Qo‘llanishi**
선생님	seonsaengnim	Ustoz/o‘qituvchi	O‘qituvchi yoki ustozga
교수님	gyosunim	Professor	Professor-o‘qituvchiga

[2] Jeon Hye-young. Educational Contents and Tasks of Korean Address Terms // Korean Studies and Education. — Seoul: Ewha Womans University Korean Language and Literature Research Institute. — No. 1. — P. 121–135.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

사장님	sajangnim	Rahbar	Kompaniya rahbariga
부장님	bujangnim	Bo‘lim boshlig‘i	Bo‘lim rahbariga
과장님	gwajangnim	Bo‘lim menejeri	Tegishli lavozimdagi xodimga
고객님	gogaengnim	Hurmatli mijoz	Mijozga xizmat ko‘rsatishda

Keltirilgan misollarda -님 (-nim) hurmat ma’nosini kuchaytiruvchi qo‘shimcha sifatida namoyon bo‘ladi. U kasb yoki lavozim nomlariga qo‘shilib, murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan ehtiromni bildiradi. Masalan, 교수님 va 사장님 shakllarida lavozim nomi hurmat ifodalovchi birlik bilan birikkan.

가: 선배님, 드디어 저 졸업합니다.
나: 하늘아, 네가 벌써 졸업하니? 축하한다[3].

Koreys tilida ism bilan qo‘llanadigan -씨 (-ssi) ham keng tarqalgan murojaat vositasidir. Masalan, 김민수 씨 (Kim Minsu ssi) shakli ko‘pincha odobli va nisbatan rasmiy yoki neytral muloqotda ishlatiladi. -님 esa ko‘proq hurmat darajasi yuqoriroq bo‘lgan vaziyatlarda yoki muayyan xizmat va lavozim nomlari bilan qo‘llanadi. Ularning tanlanishi suhbatdoshlarning o‘zaro munosabati, yoshi, mavqei va muloqot sharoitiga bog‘liq.

가: 유키 씨, 점심에 뭘 먹을 거예요?
나: 시간이 없어서 저는 김밥을 먹을까 해요[4].

Murojaat shakllarini tanlashda rasmiy va norasmiy muloqot sharoitlari ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, ta’lim muassasasida talabaning professoriga 교수님 deb murojaat qilishi odatiy hol hisoblanadi. Do‘stlar o‘rtasida esa yosh, yaqinlik va kelishilgan muloqot uslubiga qarab ism yoki qarindoshlik atamalaridan foydalaniladi. Demak, bir shaxsga turli vaziyatlarda turlicha murojaat qilinishi mumkin.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qaraganda, koreys tilidagi murojaat shakllari faqat yosh yoki lavozimni bildirish bilan cheklanmaydi. Ular so‘zlovchining suhbatdoshga bo‘lgan munosabati, hurmat darajasi va ijtimoiy masofani ham ifodalaydi. Shu sababli murojaat birliklarini o‘rganishda ularning grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda pragmatik va madaniy jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, koreys tilida murojaat shakllari ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi va hurmat kategoriyasini yuzaga chiqaruvchi muhim til birliklaridan biridir. Ularning qo‘llanilishida yosh, ijtimoiy mavqe, kasbiy faoliyat, yaqinlik darajasi hamda muloqot vaziyati asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 형, 오빠, 언니, 누나 kabi birliklar yosh va shaxslararo munosabatlarni, 교수님, 선생님, 사장님 kabi shakllar esa kasbiy mavqe va hurmat munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Demak, koreys tilidagi murojaat shakllari til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy

[3] Yonsei University Korean Language Institute Textbook Compilation Committee. New Yonsei Korean Vocabulary and Grammar 2-1 (English Version). — Seoul: Yonsei University Press, 2019. — P. 108.

[4] Yonsei University Korean Language Institute Textbook Compilation Committee. New Yonsei Korean Vocabulary and Grammar 2-1 (English Version). — Seoul: Yonsei University Press, 2019. — P. 99.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

aloqani namoyon etib, koreys xalqining ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yonsei University Korean Language Institute Textbook Compilation Committee. New Yonsei Korean Vocabulary and Grammar 2-1 (English Version). — Seoul: Yonsei University Press, 2019.
2. Kim G. Koreys tilida murojaat kategoriyasi va nutq etiketi haqida // http://www.koryosaram.freenet.kz/articles/ks-address-forms.doc; John H. K. Janubiy Koreyada “You” murojaat shakli haqida // Korean Journal. — 1992. — Vol. 32. — No. 1. — Spring.
3. Sohn, Ho-min. The Korean Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
4. Yeon, Jaehoon; Brown, Lucien. Korean: A Comprehensive Grammar. London: Routledge, 2011.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.